

UMURZAK O'LJABAYEV IS A SCHOLAR OF LITERATURE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7792820>

Normurodova Nargiza Alijonovna

Guliston davlat universiteti, 00000.

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

Gmail: nargizanormurodova1982@gmail.com

Abstract

This article is dedicated to the study of the pedagogical and scientific activity of the literary scholar Umurzak Oljabayev and to the researches of the scientist on the works written on the subject of the second world war.

Also, literary-critical articles of the scientist on the subject of their war period, which left a mark in the 20th century Uzbek literature, were selected as an object for research. Literary scholar U. Oljabayev was one of GulDU's outstanding pedagogic scientists. His scientific literary activity is also an example for us. He worked tirelessly as both a scientist and a teacher. He created several scientific works, monographs. The main subject of the scientist's scientific activity is his research on works about war created during and after the Second World War. The innovation discovered by the scientist in literary studies is his careful study of the works that reflect the tragic consequences of the war, which left an indelible mark on people's memories. In this article, some comments are made about the pedagogical and scientific activity of the literary scholar. After all, it is an important factor to study the results of the scientist's hard work and understand its importance for today.

Keywords

Wartime literature, hero's speech, composition, plot, conclusion, wartime narrative, wartime novel, etc.

UMURZOQ O'LJABOYEV-ADABIYOTSHUNOS OLIM

УМУРЗАК УЛДЖАБАЕВ-ЛИТЕРАТУРОВЕД

Аннотация

Данная статья посвящена изучению педагогической и научной деятельности литературоведа У. Улджабаева, а также сделаны комментарии к анализу научных статей учёного на тему второй мировой войны. Также в качестве объекта исследования были выбраны литературно-критические статьи учёного на тему военного периода, оставившие след в узбекской литературе XX века. Литературовед

У.Улджабаев был одним из виднейших ученых-педагогов ГулГУ. Его научная и литературная деятельность должна быть для нас примером. Умурзак Улджабаев неустанно трудился как ученый и педагог. Создал несколько научных работ и монографии. Основной темой научной деятельности ученого являются его исследования произведений о войне, созданных во время и после Второй мировой войны. Нововведением, обнаруженным ученым в литературоведении, является его внимательное изучение произведений отражающих трагические последствия войны, оставившей неизгладимый след в памяти людей. В данной статье сделаны некоторые комментарии о педагогической и научной деятельности литературоведа У.Улджабаева. Ведь исследовать результаты кропотливой работы ученого и осознать ее важность на сегодняшний день-важный фактор.

Ключевы слова

литература военных времён, героическая речь, композиция, сюжет, развязка, военное повествование, военный роман и другие.

Kirish. Mazkur maqola adabiyotshunos olim U.O'ljaboyevning pedagogik, ilmiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, olimning ikkinchi jahon urushi davri mavzusida yozilgan asarlar yuzasidan olib borgan ilmiy maqolalar tahlili haqida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek tadqiq uchun ob'ekt sifatida olimning XX asr o'zbek adabiyotida iz qoldirgan urush davri mavzusida yozilgan asarlar haqidagi adabiy-tanqidiy maqolalari tanlangan.

Adabiyotshunos olim U.O'ljaboyev GulDUning eng ko'zga ko'ringan pedagog olimlaridan edi. Uning ham ilmiy adabiy faoliyati bizga o'rnak bo'larlidir. U.O'ljaboyev ham olim, ham pedagog sifatida tinimsiz mehnat qildi. Bir qancha ilmiy asarlar, monografiyalar yaratdi. Olimning olib borgan ilmiy faoliyatining asosiy mavzusi bu ikkinchi jahon urushi davridagi va undan keyingi davrda yaratilgan aynan urush haqidagi asarlar yuzasidan olib borgan tadqiqotlaridir. Olimning adabiyotshunoslikda kashf etgan yangiligi bu insonlar xotirasida o'chmas iz qoldirgan urushning ayanchli oqibatlarini aks ettirgan asarlarni sinchkov nigoh ila tadqiq etishidir. Mazkur maqolada adabiyotshunos olim U.O'ljaboyevning pedagogik hamda ilmiy faoliyati haqida ayrim mulohazalar yuritiladi. Negaki, olimning mashaqqatli mehnat samarasini tadqiq etish, bugungi kun uchun ahamiyatini anglatish muhim omil hisoblanadi

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida U.O'ljaboyevning barcha ilmiy asarlari, maqolalari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Taniqli adabiyotshunos olim, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, filologiya fanlari nomzodi, nuqtadon munaqqid, Umurzoq O'ljaboyev qariyb ellik to'rt yil davomida Guliston davlat universitetida faoliyat yuritgan.

Adabiyotshunos olim, xotirana'vis, mehdariyo ustoz, ajoyib inson Umurzoq O'ljaboyev 1942-yilning 9-aprelida Samarqand viloyatining Nurota (hozirgi Qo'shrabod) tumanida tug'ilgan. U 1959- yilda o'rta maktabni tugatib bir yil ishlagach, 1965-1966- yillarda Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zMI)ning filologiya fakultetida talaba, 1965-1968- yillarda shu fakultetining "O'zbek adabiyoti" kafedrasida aspirant bo'lgan. 1968-yilning 1-dekabridan Guliston davlat universitetining "O'zbek adabiyoti kafedrasida faoliyat yuritgan, 1978- yilda "Hozirgi o'zbek romanchiligida Ulug' Vatan urushi davrining aks etishi" degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ustoz Umurzoq O'ljaboyev mehnat faoliyatini 1965- yildan Sirdaryo viloyati Guliston tumani 5-maktabda o'quvchilarga o'z mutaxassisligidan saboq berishdan boshlagan. 1968- yildan 1971- yilgacha Sirdaryo davlat pedagogika instituti "O'zbek adabiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi, 1971-yildan 1976-yilgacha kafedrada dotsent vazifasini bajaruvchi, 1976-1986- yillar kafedra dotsenti, 1986-1988-yillar kafedra katta ilmiy xodimi, 1988-1990- yillar kafedra dotsenti, 1990-yildan 2011-yilgacha Guliston davlat universiteti "O'zbek adabiyoti" kafedrasida mudiri, 2011-2021-yillar "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedra dotsenti vazifasida ishlab kelgan. Umurzoq O'ljaboyev Sirdaryo davlat pedagogika instituti endigina tashkil topgan, dastlabki qadamlarini tashlayotgan bir paytda 1968-yilning 1-dekabrida o'z ish faoliyatini boshlagan. Ellik to'rt yil davomida ustoz Umurzoq O'ljaboyev oliy dargoh Guliston davlat universitetining barcha ta'lim-tarbiya ishlarida jonbozlik ko'rsatdi. Ming-minglab talabalarga adabiyot sirlari bilan birga o'z hatti- harakati, samimiy munosabati, keng dunyoqarashi bilan chin insoniylik saboqlarini ham berdi. Haqiqiy ustozlarga xos talabchanligi bilan talabalar o'rtasida ham, professor o'qituvchilar o'rtasida ham katta hurmat- e'tiborga sazovor bo'ldi.

Umurzoq O'ljaboyevning adabiyotga bo'lgan qiziqishi bolalik davrlarida boshlangan. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim, professor Qozoqboy Yo'ldoshev ustoz Umurzoq O'ljaboyev bolaligi haqidagi quyidagi voqeani bayon etadi: "Yettinchi sinfdan o'qib yurganida qo'lga E.Voynichning "So'na" romani tushib qoladi. Romanning qiynoqlarda toblangan qahramoni karbonaviy Artur taqdiri tasviri hissiyotli o'smirning xayolot dunyosini ostin-ustun qilib yuboradi. Unga kurashchi yigit tortgan azoblar shunchalik qattiq ta'sir ko'rsatadiki, tunlari

uxlolmaydigan, inqilobchi yigitdan boshqani o'ylolmaydigan bo'lib qoladi. Nihoyat, kitobning kuchli ta'siri haqida "Gulxan" jurnaliga xat yozib, tushunishga qiynalgan ayrim o'rinlarning izohini so'raydi. Jurnaldan Nosir Fozilov imzosi bilan kelgan javob xatida yigitchaning taassurotlari ma'qullanib, ayrim maslahatlar berilgandi. Bolalikda olingan taassurotlar hech qachon izziz ketmaydi. Umurzoq akaning keyinchalik harbiy nasr muammolari bilan shug'ullanishiga qahramonlik dostonlari va "So'na" romani ta'sir ko'rsatgan bo'lishi juda ham muhim ".[10]

Yuqoridagi Qozoqboy Yo'ldoshevning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, Umurzoq O'ljaboyevda adabiyotga mehr ana shunday beg'ubor bolalik davrlaridan paydo bo'lgan.

Bo'lajak olimning bolalik kezlari ham oson o'tmagan. XX asrning 50-yillari o'rtasida O'zbekiston bo'ylab tog'li joylardan odamlarni cho'lga ko'chirma qilish boshlanadi. Shu bahonada Nurota tog'laridan Sirdaryogacha otasiga qo'shilib, o'n uch yosh Umurzoq ham haydab chiqilgan bir suruv qo'y va o'nlab qoramolni oyog'i bilan yurib, tog'dan pastga engani sari manzaralarning qashshoqlashayotganini sezgan, o'shanda ilk bor yurtdan ayriliq hissini tuygan edi. Tunlari yo'lda uxlab qolib, yiqilib tushmaslik uchun xurjuniga oyog'ini tiqib olgan o'smir ota-onasi bilan Sirdaryo bo'yidagi to'qayga yetib keladi.

Bolalik davridagi o'qish yillari ham juda ajoyib bo'lgan. U avval o'zbek, keyin qozoq, keyin ikki yil tojik va bitiradigan yili yana o'zbek maktablarida o'qigan o'sha paytdagi hayot mana shunday maktabdan bu maktabga ko'chib yurishni taqozo etsa-da, Umurzoq O'ljabayev eng a'lochi o'quvchi hisoblangan. Eng qiynalib o'zlashtirgan fani adabiyot edi. Chunki har bir xalqning o'z adabiyoti bor edi-da!

Bo'lajak olim tinimsiz badiiy asar o'qir, rubob chertib qo'shiq aytar edi. Bundan odamlarning qalbini shodlikka to'ldirar edi. Shu vajdan konservatoriyaga ham kirmoqchi bo'ladi, ammo kattalarning maslahati bilan Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetiga hujjat topshiradi, ammo birinchi yil imtihondan o'ta olmaydi. Kelasi yil esa talaba bo'lish nasib etadi. Toshkent davlat universitetida o'qish davomida adabiyotshunoslikning ulkan tog'lari bo'lgan yirik olimlardan saboq oladi. G'ulom Karimov, Yu.Tohiriy, Ayub G'ulomov, Subutoy Dolimov, Ozod Sharafiddinov kabi ustozlari e'tiboriga tushadi. Adabiyotga bo'lgan chin mehri tufayli yirik adabiyotshunos olim, professor G'ulom Karimovning nazariga tushib, uni shogirdiga aylanadi. Dessertatsiyasini yoqlaydi, ko'plab maqolalar, kitoblar nashr ettiradi. Adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik sohasidagi birinchi ishlari 1966-yilning mart oyida "Sirdaryo haqiqati" gazetasida e'lon qilingan "Ilk qadam" nomli maqolasi edi. Shundan so'ng ketma-ket bir

qancha maqolalar, kitoblar dunyo yuzini ko'rdi. Olim qalamiga mansub "Mardlik va matonat tasviri" (1967-yil), "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari" (1989-yil), "Urush davri o'zbek hikoyachiligi" (2006-yil), "Badiiy tasvirning haqqoniyligi" (2008-yil), "Hikoyachilikda davr nafasi" (2016-yil), "Adabiyot-ko'ngil ko'zgusi" (2018-yil) kabi monografiyalar; "Satrlar ovozi" (1985-yil) ilmiy ommabop risolasi; "Xotiraga ko'chgan umrlar" (2010-2016-yillar), "Do'st bilan obod uying" (2016-yil), "Abdulla Qahhor saboqlari" (2013-yil) o'quv-uslubiy qo'llanmasi, shuningdek "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Guliston" kabi ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop hamda "Axborotnoma" tipidagi jurnallarda e'lon qilingan 25 ta, hamda ilmiy to'plamlarda chop etilgan 38 ta, gazetalar orqali o'z o'quvchisi bilan diydorlashgan 88 ta maqolalar 80-yillardan e'tiboran xalqimiz ma'naviy mulkiga aylangan.

Bu izlanishlardan xarakter yaratish muammolari, rang imkoniyatlari, syujet va kompozitsiya, nasrimiz taraqqiyot tamoyillari, hayotiy va badiiy haqiqat, shakl va mazmun mutanosibligi, uslub jilolari, ijod mas'uliyati ijodkor laboratoriyasi kabi ko'plab nazariy muammolar tadbiq etilgan. Ular orasida urush va urush davri odamlari haqidagi mavzu hech qachon kishini e'tiborsiz qoldirmaydi. Mana shu mavzu yuzasidan urush haqida, urushdagi odamlar dard-iztiroblari, qayg'usi, alami, g'am-tashvishi, yo'qotilgan bolaligi, ota-onaning farzandidan, farzandning ota-onadan ayrilishi, ayolning sevimli yoridan judo bo'lishi, qancha-qancha bolalarning ota nomli buyuk shodlikdan mosuvo bo'lishi, XX asr fojiasi yuzasidan tahlil olib borish adabiyotshunos olimning chekiga tushdi. U shu urush mavzusida yaratilgan ayrim asarlar yuzasidan adabiy mulohazalar yuritib, 1979- yilda "Hozirgi o'zbek romanchiligida Ulug' Vatan urushi davrining aks etishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu mavzuning turfa qirralarini har xil rakurslardan izchil tarzda keng tahlil va tadqiq etdi. Bu hol uning tinchlik, birdamlik, hamjihatlik, yaratuvchanlik va bunyodkorlik haqidagi estetik idealari, davrimizga hamohang o'y-fikrlari, binobarin inson qismati haqida qayg'uruvchi bag'rikeng inson sifatidagi ulug'vor siyrati bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyotshunos olim Umurzoq O'ljaboyev qalamiga mansub maqola va esse-xotiralarda juda ko'plab o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan tanqidchi olimlar, yozuvchilarning hayoti, ijodi haqida teran mulohazalar yuritilgan, tahlilga tortilgan. Jumladan, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Hudoyberdi Doniyorov, Anqaboy Quljanov, Akrom Kattabekov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Omonboy Suvanov kabi olimlar, Alisher Navoiy dahosidan tortib, XX-XXI asrlarda qalam tebratgan Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Said Ahmad,

Shuhrat, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov, Shukur Holmirzayev, To'ra Sulaymon va boshqa ijodkorlarning ijodiy barkamolligi ham, insoniy fazilatlari ham olim nazaridan chetda qolmagan. Yosh yozuvchi, shoirlarga esa o'zining ibratli saboqlarini bergan.

Ustoz Umurzoq O'ljabayev xotirlangan "Nurli manzillarga intilib" (2021- yil) kitobida ham Respublikamizning taniqli olimlari, mashhur shoir, adiblari, hamkasb do'stlari, shogirdlari va turli soha vakillari–adabiyot, san'at madaniyat fidoyilarining dil so'zlari jamlangan. Ammo bu kitob nashr etilishini ustoz ko'ra olmadilar. "Nurli manzillarga intilib" kitobida domlaning eng yaqin do'stlari, adabiyotshunos olimlar, yozuvchilar, shoirlarni ustoz haqidagi e'tiroflari, ehtiromlari jamlangan. Jumladan, GulDU rektori Ashraf Eminov, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Baxtiyor Nazarov, Oydin Xojiyeva, Shavkat Karimov, Saydi Umirov, Jumanazar Beknazarov, Ulug'bek Dolimov, Karimboy Quranbayev, Yormat Tojiyev, No'monjon Rahimjanov, Ortiqboy Abdullayev kabi o'ttizdan ortiq ustozlarning, yigirma beshga yaqin shogirdlarning ehtiromlari mavjud. Bu e'tibor, e'tiroflar, albatta, ustozimiz Umurzoq O'ljabayevni yaxlit insoniy va ilmiy portretini yaratish, ibratli hayot yo'lini yoritish-fenomenal qiyofasini tiklash imkonini beradi, albatta.

Ustoz degan so'z har doim mag'rur jaranglaydi. Har kim bu so'zni eshitganida, albatta, ko'z oldiga uning ustozlari namoyon bo'ladi. Inson aqlini tanib, bilim olishni boshlar ekan, albatta, unga kimdir hayot, ilm yo'lida ustozlikning chin saboqlarini beradi. Ana shu chin saboqlarini bergan insongina har birimizning bir umrlik yorituvchi mayoqdek umrimiz davomida yo'limizni nurafshon etadi. Ustozlik ulug' nom, ulug' sharaf. Bu nomga haqiqiy ma'noda har kim ham sazovor bo'la olmaydi. Ustoz bu davlat, jamiyatning eng yaqin tayanchidir. Bu haqida Prezidentimizning ushbu fikrlarini dalil sifatida keltiraman: "Men Yangi O'zbekistonni obod va farovon demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor o'qituvchilarni o'zim uchun eng katta kuch tayanch, suyanch, deb bilaman".

Darhaqiqat, pedagoglar-ustozlar mamlakat tayanchidir. Shu ma'noda ustoz Umurzoq O'ljaboyev qariyb ellik to'rt yillik mehnat faoliyatini ta'lim tizimida, pedagogik sohalarda olib bordi. Minglab talabalarga saboq berdi. Hayotining yigirma yilidan ortig'ini Guliston davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasini boshqarishdek ma'suliyatli ishga bag'ishladi.

Umurzoq O'ljabayev qayerda bo'lmasin, qanday lavozimda ishlamasin, o'zining birinchi vazifasi o'qituvchi, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi ekanini bir daqiqa bo'lsa-da unutmadi.

1968-yilning 1-dekabridan boshlab Guliston davlat universitetining filologiya fakultetida “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” kabi fanlardan saboq berib talabalar mehrini qozondi. U o‘z ishiga kamoli jiddiyat bilan yondashgani uchun ham yillar davomida talabalarning sevimli ustoz bo‘lib keldi. Umurzoq O‘ljaboyevning shogirdi taniqli adabiyotshunos olim, pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo‘ldoshev ustoz haqida shunday deydi: “Umurzoq aka domlalikni kasb emas, balki xususiyat, taqdir deb bilar, shu bois pedagog bo‘lib ishlamas, balki yashardi. Ya‘ni ishini o‘zidan, o‘zini ishidan ayri tasavvur qilmasdi, qilolmasdi. Shu sabab domla faqat ishda emas, har qachon va har qayerda domla edi. Bunga men umrining to‘shakka mixlanib qolgan so‘nggi ikki yilida ham talabalarga masofadan saboq berishga kuch topa olganida tanig‘ bo‘ldim.

Azbaroyi Umurzoq akaning jonkuyarligi, yelib yugurishi sabab Guliston davlat universiteti talabalari bir paytlar Toshkent kutubxonalaridan foydalanish, boshkent olimlaridan saboq olish imkoniyatiga ega bo‘lishardi. Domlaning urinishlari tufayli gulistonlik magistrlar Milliy universitet kutubxonalarida ishlash, O‘zbekiston Milliy universiteti magistrantlari uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda qatnashish, Til, adabiyot va folklor institutidagi mashhur olimlardan ma‘ruza tinglash, hatto poytaxt yotoqxonalaridan joy olishga muayassar bo‘lgandilar”.[6]

Darhaqiqat, Umurzoq O‘ljaboyev hayotini ta‘limsiz tasavvur eta olmasdi. Universtitet go‘yoki domlaning ikkinchi uyi edi. U ma‘ruzalarga ham amaliy darslarga ham, to‘garak mashg‘ulotlariga ham jiddiy tayyorgarlik ko‘rardi. Shuning uchun ham uning darslarida pala-partishlik, yuzakilik bo‘lmasdi.

O‘qituvchilik, pedagogik sharaflilik kasb, ammo uni sharaftga aylantirish har bir pedagogda tinimsiz mehnat uyqusiz tunlar, mashaqqatlarni talab etadi. Shundagina mahoratli pedagog, fidoyi ustoz, tajribali muallim degan e‘tirofga sazovar bo‘ladi. Ustoz Umurzoq O‘ljabayev mana shu sifatlarning barchasiga loyiq insondir.

Umurzoq O‘ljaboyevning pedagogik faoliyatidagi eng muhim jihat bu darslarga o‘zgacha zavq-shavq bilan tayyorgarlik ko‘rib, talabalarga nimadir yangi gap aytish, adabiyotshunoslik ilmining sir-asrorlarni yanada yaqqol his qildirishga, mavzu atrofida ilmiy bahs-munozaralar uyushtirishga bo‘lgan harakatlaridir.

Umurzoq O‘ljabayevning o‘z fanini chuqur bilishi, zamonaviy dunyo adabiyotidan yaxshi xabardorligi, fanga munosabati, nutq odobiga qat‘iy amal qilishi hamma talabalarni hayratda qoldirar edi.

Umurzoq O‘ljabayev o‘zbek adabiyotidan dars berishi bilan cheklanib qolmadi. Yozuvchi, shoirlar, adabiyotshunos olimlarning hayoti va ijodi bilan

tanishtirar ekan, imkoni boricha ularning o'zlarini universitetga olib kelib ijodiy uchrashuvlar o'tkazardi. Bunday uchrashuvlar, albatta, talabalar qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Ustozning tashabbusi bilan yurtimizning mashhur shoirlari Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Muhammad Ali, Tursunoy Sodiqova, yozuvchilardan O'tkir Hoshimov, adabiyotshunos olimlardan Begali Qosimov, Ibrohim G'ofurov, Naim Karimov, Qozoqboy Yo'ldoshevlar ishtirokida qator ijodiy uchrashuvlar ko'pchilikka manzur bo'lgan.

Bundan tashqari xalqimizning sevimli shoiri G'afur G'ulomning 100 yillik yubileyi juda katta Respublika miqyosidagi konferensiya sifatida nishonlangan va bu tadbirga shoirning qizlari Olmos va Toshxon G'ulomovalar ham tashrif buyurgan. Bu hol esa ko'zga ko'ringan yozuvchi shoirlarning tez-tez Guliston davlat universitetiga tashrif buyurishi Sirdaryodagi ma'naviy muhitning yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Umurzoq O'ljabayev tashabbusi bilan Respublikamizning eng yetuk olimlari Sirdaryolik talabalarga saboq bera boshladi. Uning jonkuyarligi bilan turli yillar davomida Salohiddin Mamajanov, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharifiddinov, professorlar Begali Qosimov, Umarali Normatov, Nasimxon Rahmonov, Bahodir Sarimsoqov, Ibrohim Haqqulov, Qozoqboy Yo'ldoshev kabi o'z sohasining bilimdonlari universitetga kelib dars bergan.

2000-yillardan Guliston davlat universitetida kichik maktablar paydo bo'ldi. O'zbek adabiyoti kafedrasida ham "Nihol" to'garagi o'rnida "Ijodkor yoshlar" kichik maktabi tashkil etildi. Bu kichik maktab uch yo'nalishda faoliyat olib bordi.

Bular: "Yosh adabiyotshunos", "Yosh ijodkor", "Yosh jurnalist" edi, Umurzoq O'ljaboyev bu kichik maktablarning "Yosh adabiyotshunos" yo'nalishiga o'zi bevosita rahbarlik qildi. "Yosh ijodkorlar" to'garagiga esa O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon, "Yosh jurnalist" to'garagiga esa taniqli jurnalist Mamadali Ahmedov boshchilik qildi. Bu kichik maktablarga nafaqat universitetning iqtidorli o'g'il-qizlari, balki viloyatdagi juda ko'plab yosh shoirasi-yu shoirlari jalb etilgan edi. Tez orada bu kichik maktabni mehnati viloyat miqyosida gazeta va jurnallarda xususan "Sirdaryo haqiqati", "Adolat ko'zgusi", "Davr va yoshlar", "Guliston yangiliklari" gazetalarida bo'y ko'rsatdi. Birinchi nashr sifatida ijodkor yoshlarning, talabalarning ijod namunasi jamlangan "Yosh ko'ngil mayllari" kitobi yoshlar, o'qituvchilar tomonidan zo'r qiziqish bilan kutib olindi. Kichik maktabning iqtidorli yoshlari haqida viloyat, Respublika televedeniyelerida turli ko'rsatuvlar namoyish etildi. Umurzoq O'ljabayevning sa'y-harakatlari natijasida kichik maktab a'zolaridan ko'pchiligining alohida kitoblari nashr etila boshlandi. Jumladan, 2002-yil Nasiba Mamatqulovanning "Talabaligim", 2003-yil Sevara

Bekmurodovning “Ehtirosning umidli sadolari”, 2003-yil Elyor Xo’jamberdiyevning “Muhabbat qadri” nomli ilk kitoblari dunyo yuzini ko’rdi. Umurzoq O’ljaboyevning yana bir ulkan tashabbuslaridan biri bu fakultetda bakalavriat bosqichidan so’ng magistratura bosqichining ham yo’lga qo’yilishidir. Umurzoq O’ljaboyev nafaqat talabalarga, balki magistrarga ham ilm cho’qqisini egallashlari uchun tinmay izlangan. Poytaxtda O’zbekiston Milliy universitetidagi talabalar bilan Sirdaryolik magistrLARining teppe-teng o’qishlari uchun imkoniyat yaratib bergan. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasida Til va adabiyot institutidagi yirik adabiyotshunos olimlardan dars olish uchun, fundamental kutubxonalardan foydalanishlari uchun magistrantlarga sidqidildan yordam berishi, ularni yashash sharoiti bilan qiziqib, bu borada ham o’z ko’magini ayamaligi Umurzoq O’ljaboyevning ham insoniylik, ham ustozlik maqomining naqadar ulug’ ekanligidan dalolat beradi.

Umurzoq O’ljaboyevning ana shunday jonkuyar mehnatlari samarasi o’laroq Guliston davlat universiteti o’zbek adabiyoti kafedrasida bir necha shogirdlari magistr, dotsent, professor darajalariga erishdi. Jumladan, Qozoqboy Yo’ldoshev professorlik, Qobil Kubayev, Muzaffar Mamatqulov, A.Balibekov, Sirdaryo O’tanova, Nodira Xoliqova, Obida Fayzulayeva kabilar nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilishdi. Mana shu mehnatlarining samarasi o’laroq yurtboshimiz e’tirofiga sazovor bo’lib, davlatimiz tomonidan bir qancha mukofatlar bilan taqdirlandi. Jumladan, “Xalq ta’limi a’lochisi”, “Mustaqillikning 15 yilligi”, “Mustaqillikning 20 yilligi”, “Ma’naviyat fidoyisi” (2020) ko’krak nishonlari bilan mukofotlangan.

Adabiyotshunoslik sohasida olib borayotgan ilmiy tadqiqotlari va e’lon qilinayotgan asarlari uchun olim 2012-yilda Turon Fanlar Akademiyasining haqiqiy a’zosiga aylangan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-sentyabrdagi “O’qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta’lim-tarbiya tizimida alohida o’rnak ko’rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to’g’risida”gi Farmoni bilan yoshlarni Ona-Vatanga muhabbat, istiqloq g’oyalari gadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi ko’p yillik samarali xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun ustoz mamlakatimizning yuksak mukofoti “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan.

Guliston davlat universitetiga butun hayotini baxshida etgan, ta’lim tizimini rivojlantirish uchun butun kuch-g’ayratini ayamagan, jonkuyar, halol, mehnatsevar, qalbi toza, mehrlil ustoz, adabiyotshunos olim, O’zbekiston

Yozuvchilar uyushmasining a'zosi Umurzoq O'ljaboyev haqiqiy olim, haqiqiy pedagog sifatida mangu barhayotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'ljaboyev.U.Mardlik va matonat tasviri.-T.,G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1976.-148 b.
2. O'ljaboyev.U.Xotirada chizilgan izlar.-T.,G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1992.-200 b.
3. O'ljaboyev.U.Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi.-T.,O'zbekiston.2012.-374 b.
4. O'ljaboyev.U.Hikoyachilikda davr nafasi.-T.,Turon-Zamin-Ziyo.2016.-256 b.
5. O'ljaboyev.U.Adabiyot ko'ngil ko'zgusi.-T.,Turon-Zamin-Ziyo.2017.216 b.
6. O'ljaboyev.U.Qalbim to'ridagi odamlar.-T.,Fan ziyosi.2022.292 b.
7. Yo'ldoshev.Q;Yo'ldosheva.M.Badiiy tahlil asoslari.-T.,Kamalak.2016.-464 b.
8. Quronov.D.Adabiyot nazariyasi asoslari.-T.,Noshir.2019.-336 b.
9. Umurov.H.Adabiyotshunoslik nazariyasi.-T.,A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.2004.-264 b.
10. Guliston davlat universiteti "Nurli manzillarga intilib'-.T.,Fan ziyosi.2021.296 b."